

Bo'yimadaron o'simligi va uning tibbiyotdagi ahamiyati

Ziyoyeva Farangiz Chori qizi

Abdumurotova Jasmina Baxriddin qizi

Ro'ziyeva Gulsara Temirqulovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti talabalari.

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti o'qituvchisi.

e-mail: ziyoyevafarangiz7@gmail.com

jasminaabdumurotova@gmail.com

Ruziyeva.gulsara@gamil.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'yimadaron o'simligining tuzulishi; hayotiy shakli; ildizi va bargining tuzulishi; o'simlik yallig'lanishga qarshi, antiseptik, qon to'xtatuvchi, og'riq qoldiruvchi, siydik haydovchi, o't haydovchi va anti allergik ta'sirga ega ekanligi; homiladorlik va emizish davrida, shuningdek, allergiyasi bor shaxslarga tavsiya etilmasligi holatida qayta tarzda foydalanish usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: bo'yimadaron o'simligi, sho'ng'uvchi ildiz, vegetatsiya davri, fitoterapiya, taninli moddalar, damlama, qon ivishining buzulishi, diuretik, qonning quyugligi, fotosensibilyatsiya, epilepsiya.

Растение боярышник и его значение в медицине

Зиёева Фарангиз Чори кизи

Абдумуротова Жасмина Бахриддин кизи

Рузиева Гулсара Темиркуловна

**Студенты медицинского факультета университета экономики и
сервиса Термез.**

**Преподаватель медицинского факультета Термезского
университета
экономики и сервиса.**

e-mail: ziyoyevafarangiz7@gmail.com

jasminaabdumurotova@gmail.com

Ruziyeva.gulsara@gamil.com

Аннотация. В этой статье описывается структура растения боярышника; жизненная форма; структура корня и листа; что растение обладает

противовоспалительным, антисептическим, кровоостанавливающим, обезболивающим, мочегонным, желчегонным и противоаллергическим действием; и способы повторного использования во время беременности и кормления грудью, а также в случае, если оно не рекомендуется людям с аллергией.

Ключевые слова: растение ромашка, ныряющий корень, вегетационный период, фитотерапия, дубильные вещества, настойка, нарушение свертываемости крови, мочегонное средство, темнота крови, фотосенсибилизация, эпилепсия.

The bacilli plant and its importance in medicine

Ziyoyeva Farangiz Chori qizi

Abdumurotova Jasmina Baxriddin qizi

Ro'zieva Gulsara Temirkulovna

Students of the Faculty of Medicine of the universiteti Termez economics and service.

Termez is a faculty member of the Faculty of Medicine of the University of Economics and services.

e-mail:ziyoyevafarangiz7@gmail.com

jasminaabdumurotova@gmail.com

Ruziyeva.gulsara@gmail.com

Annotation. This article presents methods of re-use during pregnancy and breastfeeding, as well as in the case of not being recommended for individuals with allergies, in the event that the plant has anti-inflammatory, antiseptic, blood suppressant, analgesic, urinary, herbivorous and antiallergic effects.

Keywords: neckline plant, diving Root, growing season, Phytotherapy, tannins, tincture, blood clotting disorder, diuretic, blood clot, photosensitivity, epilipsia.

Bo'yimadaron-Asteraceae(qoqidoshlar)oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Uni qon to'xtatuvchi o't va ming yaproqli degan nomlari ham bor. Sho'ng'uvchi yer ostida tarqaluvchi ildizlarga ega. Ildiz bo'g'zidan barg va poyalar o'sib chiqadi. Ildizlar sershox , o'simlikni tuproqqa mustahkam tutib turadi.

To'g'ri o'sadigan tik, ba'zan biroz egilgan bo'lishi mumkin. Yuqori qismida shoxlanadi. Uzunligi odatda 30-80 sm ba'zan 1 metrgacha yetadi. Yengil tuklar bilan qoplangan. Barglari patlab bo'lmagan ingichka va o'tkir uchi bilan ajralib turadi. Ildizi atrofidagi burglar yirikroq poya bo'ylab yuqoriga chiqqan sari maydalashib boradi. Barglari ko'kimtir yashil. Mayda yoki och pushti rangli gullari bo'ladi. Gullari poyaning yuqori qismida qalqansimon to'pgul hosil qiladi. Gullash davri iyun-avgust oylarida. Mevasi mayda yassi pistacha shaklida. Avgust oyida yetiladi. Urug'i yengil va shamol yordamida tarqaladi.

Bu o'simlikning hayotiy shakli bir yillik yoki bir urug'li o't o'simlik hisoblanadi. Bu degan, u bir vegetatsiya davrida urug'dan unib chiqadi, gullaydi, meva hosil qiladi va so'lib qoladi. Bo'yimadaron odatda past bo'yli yer yuzasiga yoyilib o'sadigan, kuchli ildiz tizimiga ega bo'lgan o't o'simlikdir. Ko'pincha yo'l yoqalarida, ekinlar orasida va boshqa ochiq joylarda uchraydi.

Bo'yimadaron o'simligining tarkibida quydagilar mavjud: Flavonoidlar(avikulyarin,kvercetin va boshqalar), taninlar, saponinlar, silikat kislota tuzlari, vitaminlar (ayniqsa C vitamini), organik kislotalar. Bu tarkibidagi modddalar sababli u xalq tabobatida rivojlangan fitoterapiyada keng qo'llaniladi.

Bo'yimadaronning tibbiyotdagi ahamiyati.

Siydik haydovchi (diuretik), bo'yimadaron tanani ortiqcha suyuqlikdan tozalashda yordam beradi. Bu xususiyatlar bilan buyrak toshlari va qumni haydashda, piyelonefrit, sistit kabi buyrak va siydik yo'li kasalliklarida, tana shishlari, yurak kasalliklaridagi shishlarda foydali hisoblanadi. Ichki yallig'lanishda (gastrit kolit)da ishlatiladi. Taninli moddalar qon tomirlarni toraytirib, qon ketishni kamaytiradi. Bu holatda : burun qonashi, ichki qon ketishlarda ishlatiladi.

Barglaridan tayyorlangan qaynatmalari yoki damlamalari: teri tozalaydi va tiklanishini tezlashtiradi. O'pka va nafas tizimi kasalliklarida yo'talni yumshatadi, balg'am ko'chirishni osonlashtiradi. Bu xususiyat bronxit, faringit, traxeit kabi kasalliklarda foydalidir.

Qo'llanish usullari.

Ichish uchun damlama (ichki foydalanilishi): 1 osh qoshiq quritilgan o'simlik, 1 stakan qaynagan suv, 15-20 daqiqa damlab qo'yiladi, suzib olinadi. Kuniga 2-3 mahal ovqatdan oldin yarim stakandan ichiladi.



Tashqi foydalanish uchun qaynatma: yaralarni yuvish yoki compress uchun ishlatiladi. 2 osh qoshiq o'simlik 1 stakan suvda 10 daqiqa qaynatiladi. Sovutilib, toza mato bilan yara ustiga qo'yiladi.

Garchi foydali bo'lsa-da, ba'zi hollarda ehtiyotkorlik zarur: Homiladorlikda va emizikli ayollar uchun shifokor bilan maslahatlashmasdan ichish tavsiya etilmaydi.

Homiladorlik va emizikli davrida qat'iy man etiladi. Chunki bu homila tushishiga olib kelishi mumkin. Emizish davri: Bo'yimadaroning emizikli onalar va chaqaloqlar uchun xavfsizligi yetarlicha o'rganilmaganligi sababli, emizish davrida uni qo'llanishdan saqlanish lozim.

Buyrak kasalliklarining og'ir shakllari (glomerulonefrit, buyrak yetishmovchiligi) bo'lgan ehtiyot bo'lishi kerak. Tanadagi ortiqcha quyuqlik (qonning quyuqligi) holatida qon ivishini kuchaytirishi mumkin. Bo'yimadaron qon ivishini sekinlashtirishi mumkin. Shuning uchun qon ivishining buzulishi bo'lgan shaxslar, shuningdek operatsiyadan oldin va keyin uni iste'mol qilishdan saqlanilishlari kerak. Lithium preparatlarini qabul qilish. Bo'yimadaron organizmdan lithiumning chiqarilishini sekinlashtirishi mumkin, bu esa lithiumning kontsentratsiyasini oshirib nojo'ya ta'sirlar xavfini oshiradi. Agar lithium qabul qilayotgan bo'lsangiz, bo'yimadaron qabul qilishdan oldin shifokoringiz bilan maslahatlashing. Bo'yimadaroni uzoq muddat davomida (bir necha oy) iste'mol qilish ba'zi hollarda terining sezgirligini oshirishi (fotosensibilatsiya) va toshmalarga olib kelishi mumkin. Bo'yimadaron tarkibidagi ayrim moddalar (masalan, tuyoq) nerv tizimiga ta'sir qilishi mumkin shuning uchun epilepsiyasi bor shaxslar uni ehtiyotkorlik bilan ishlatish kerak.

Xulosa. Bo'yimadaron- ko'p yillik dorivor o'simlik bo'lib, tarkibida efir moylari, flavonoidlar va boshqa biologik faol moddalar mavjud. U yallig'lanishga qarshi, antiseptik, qon to'xtatuvchi, og'riq qoldiruvchi va boshqa foydali xususiyatlarga ega. Bo'yimadaron xalq tabobatida turli kasalliklarni davolashda keng qo'llaniladi, lekin homiladorlik, emizish davri va allergik reaksiyalarda ehtiyotkorlik talab etiladi. Bo'yimadaron ko'p qirrali foydali o'simlik bo'lib tibbiyot va kasmetologiyada keng qo'llaniladi. Uning shifobaxsh xususiyatlari tufayli turli kasalliklarni davolashda va terini parvarish qilishda muhim ahamiyatga ega.

